

TALABALARNI ILM-FANGA JALB ETISHDA TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASI

*Saydivaliyeva Barno Saidbaxromovna
Yuldosheva Mamura Baxtiyarovna
Toshkent davlat transport universiteti
“Chet tillari” kafedrasida o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni ilm-fanga jalb etishda ta'lim tizimi modernizatsiyasi ta'lim- tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarni aks ettirgan, zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanishi hozirgi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonlarda ta'lim tizimining o'rnini esa beqiyos. Yangi O'zbekistonda so'ngi yillarda olib borilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarda nazariya va amaliyotning uyg'unligini keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim- tarbiya, xalq, zamonaviy metodlar, pedagogik fikr, gazeta, usullar,

Kirish. Insoniyat paydo bo'lgandan buyon bosib o'tgan davr davomida aqliy intellekt orqali qulaylik va imkoniyatlar yaratdi. Kun sayin emas, soniya sayin jadallik bilan rivojlanib borayotgan dunyoda aqliy salohiyatning yuqoriligi har qachongidan ham muhimdir. Avvallari biror kasb egasi o'z sohasida uzoq yillar mehnat qilishi jarayonida yildan yilga tajribasi oshib, yetuk mutaxxasisga aylanib borgan. Endi esa har qanday mutaxxasis ham faqatgina soha bo'yicha mehnat bilan cheklanib qolmay, tinimsiz izlanishi va zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan samarali foydalanishi hozirgi dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonlarda ta'lim tizimining o'rnini esa beqiyos. Yangi O'zbekistonda so'ngi yillarda olib borilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlarda nazariya va amaliyotning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Barcha umumta'lim muassasalarida 7- sinfdan boshlab o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, shuningdek, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim tizimining joriy etilishi nazariya va amaliyot uyg'unligining yorqin dalili. Buning natijasida, dual ta'lim tizimi asosida ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan o'quvchilarga ish beruvchi bilan tuzilgan muddatli mehnat shartnomasiga muvofiq ish haqi to'lanadi¹. Yoshlarning moddiy manfaatdorligini rag'batlantirilishi esa ularni tanlagan kasbini mukammal egallashga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalari va kasb-hunar maktablari bitiruvchilarining baholarini oliy ta'lim muassasalariga kirish imtixonlarida inobatga olish tartibini joriy etilishi ham o'quvchilarning maktab davridanoq puxta bilim olishga undamoqda. O'quvchilar bilimni baholash jarayonini raqamlashtirish va shaffofligini

ta'minlash maqsadida 2020-2021 o'quv yilidan boshlab barcha umumta'lim muassasalarida “Elektron kundalik” dasturi joriy qilindi².

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev boshlagan “Uchinchi Renessans” poydevorini yaratishdek ulug' maqsadning ro'yobi ham yoshlarni ilm-fanga jalb etish orqali yuzaga chiqadi. Bu borada yoshlarimizning kreativligi va kitobxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnika yutuqlari hayotimizning har bir sohasiga kirib borishi natijasida, aksariyat yoshlarimiz asosiy vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlar va mobil aloqaga sarflayotganlari sir emas. Internetni ilm-fan yangiliklaridan bohabar bo'lish va ma'sofaviy fikr almashish vositasi sifatida yo'naltirish masalalari ham o'z yechimini topmoqda. Respublikamiz maktablari bosqichma-bosqich internet tarmog'lariga ulanmoqda. Hozirda yurtimizda jami 133 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazi ochilgani farzandlarimizda zamon talabi bo'lgan kompyuter va “IT” (ay-ti) texnologiyalar sohasida bilim va ko'nikmalrni shakllantirishga xizmat qilmoqda³. Respublika va xalqaro miqyosida ilmiy anjumanlar, konferensiyalar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan bir qatorda xususiy maktablar, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, Prezident maktablarining faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsada, maktab yoshidagi o'quvchilarning salmoqli qismi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil oladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari har bir fan darsliklari bilan birga qo'shimcha ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yish lozim. Fanlarga doir qo'shimcha ilmiy adabiyotlar har bir o'quvchi uchun alohida bo'lmasada, hech bo'lmaganda oz sonli nusxada maktab kutubxonasida bo'lishi zarur. Ushbu amaliy taklifning yo'lga qo'yilishi natijasida, umumiy o'rta maktablarida ham iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning samarali mexanizmi yaratiladi.

Yoshlarni ilm-fanga jalb etishda ta'lim tizimi moderniztsiyasining ahamiyati katta. Taraqqiy etgan mamlakatlarning xalqaro tajribalari uyg'unligida ilm-fan sohalarini o'rganish yuqori samara beradi. “El-yurt umidi” jamg'armasi 2021-2022 o'quv yili uchun jami 350 o'ringa mo'ljallangan ochiq stipendiyalar tanlovini qildi. Bu o'z navbatida, iste'dodli yoshlarimizga xalqaro standartlar bo'yicha ilm olish va o'zaro fikr almashish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, yoshlarni ilm-fanga jalb etish masalalariga yurtboshimiz boshchiligida, davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Davlat rahbarining ilk bora 2020- 2021 o'quv yilidagi maktab bitiruvchilariga bayram tabrigi yo'llaganligi ham yosh avlodga berilayotgan e'tiborning yorqin dalilidir. Maktab bitiruvchilarini “yosh do'stlarim” deya davlat rahbarining shaxsan o'zi ilm-fan cho'qqilarini zabt etishga, o'rganish va izlanishdan aslo to'xtamaslikga chorlayotganligi kelajakda yangi O'zbekiston rivoji uchun ulkan marralarni zabt etishda katta kuch bag'ishlaydi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi tarqqiyot davrida ta’lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF- 6108-sonli Farmoni
2. www.uzedu.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “So‘ngi qo‘ng‘oiroq” munosabati bilan maktab bitiruvchilariga tabrigi.
4. Bakhtiyarovna, Y. M., Shukhratovna, S. I., Izatullaevna, I. I., Muydinjanovna, Y. D., Yurevna, F. L., & Mamadjanovna, K. M. (2022). INDEPENDENT EXTRACURRICULAR WORK OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF A CREDIT MODULAR SYSTEM. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3302-3305.
5. Mamura Bakhtiyarovna Yuldosheva (2022). THE STYLISTIC SIGNIFICANCE OF TRANSLATING PORTRAITS UZBEK NOVELS INTO ENGLISH. *Academic research in educational sciences*, 3 (2), 224-228. doi: 10.24412/2181-1385-2022-2-224-228
- 6.. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. *Theoretical & Applied Science*, (3), 11-14.
7. Yuldasheva Ma’Mura Bahtiyarovna (2020). The organization of the mental lexicon. *Наука, образование и культура*, (1 (45)), 44-45.
- 8.. Bakhtiyarovna, Y. M. (2022). RELATION OF COMPARATIVE STYLISTICS WITH TRANSLATION THEORY.
9. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>
10. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
11. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
12. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
13. Abdurashidovna, A. N. (2022). YANGI O ‘ZBEKISTONDA CHET TILLARNI OMMALASHTIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 63-70.

14. Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 1226-1235.
15. АБДУРАШИДОВА, Н.А. (2022). ПОЧЕМУ СМЕШАННОЕ ОБУЧЕНИЕ: ЗНАЧЕНИЕ ВЛ ДЛЯ УЧИТЕЛЕЙ. ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И ПРИКЛАДНАЯ НАУКА Учредители: Теоретическая и прикладная наука , (2), 136-139.
16. Абдурашидова Н.А. (2021, декабрь). ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ В МАЛЫХ ГРУППАХ. В Междисциплинарной конференции молодых ученых в области социальных наук (стр. 20-22).
17. М.Н.Ҳасанов, А.А.Азимбаев, Ҳалилов Ў., & Каримов Б. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ШАХС МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 147–153. Retrieved from <http://www.wsjournal.com/index.php/new/article/view/629>
18. Ramatov, J.S., Umarova, Rozigul , & Khasanov, M.N. (2022). METHOD OF DETERMINATION OF TRANSPORT INTENSITY IN URBAN CONDITIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 931-936.
19. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Ҳасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.